XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA ARBIRTAJ KELISHUVI

Otaboyeva Dilbar Gayratovna

Toshkent davlat yuridik universititetining Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakultetining 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Arbitraj nizolarni hal etishning eng muqobil usullaridan biri ekanligini namoyon qila olgan. Arbitraj jarayonlari va uning huquqiy tabiati juda ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan masala hisoblanadi. Ushbu maqolada arbitraj va arbitaj kelishuvi, arbitraj bitimlari, arbitraj kelishuvining maqsad va vazifalari, prinsiplari haqida so'z yuritiladi va fikr-mulohazalar bildiriladi. Arbitraj kelishuvi haqida so'z yuritilar ekan, unga oid turli qarashlar natijasida shakillangan nazariyalar ham atroflicha tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Arbitraj , arbitr, arbitraj kelishuvi, arbitraj turi, arbitraj joyi, arbitraj bandi, arbitraj kelishuvining haqiqiyligi, arbitraj kelishuvining alohidaligi, arbitraj kelishuving shakli, huquqiy oqibati, arbitraj izohi.

KIRISH

Arbitraj uzoq davr mobaynida qo'llanilgan va o'zini hal etishning samarali usullaridan biri ekanligini isbotlay olgan xususiy sudlov tizimi hisoblanadi. Shartnomada arbirtlar soni belgilab qo'yilgan bo'ladi. Misol uchun arbirlar bitta yoki uchta arbitrni tayilashni aniqlash, taraflarning shartnomaning murakkablik darajasini , nizoning kelib chiqish ehtimolini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan taxminiy qiymatini ko'rib chiqishi kerak. Arbitrlar ko'riladigan nizoning qiymatidan kelib chiqib tanlanadi. Arbitraj kelishuviga to'xtaladigan bo'lsak, arbitraj kelishuvi bu- taraflarning vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning to'laligicha yoki bir qismini xalqaro tijorat arbitrajida ko'rib hal qilish to'g'risidagi taraflarning o'zaro kelishuvi hisoblanadi. Tomonlar o'rtasida shartnoma tuzilgan payti shartnoma bandiga arbitraj izoni kiritib ketishadi. Arbitraj kelishuvi tomonlar nizoli vaziyat vujudga kelganda hal qilish vositasi sifatida sharnomaga keltirib o'tishadi. Arbirtaj kelishuvi nizo kelib chiqishidan oldin tuziladi, agar nizo kelib chiqsa arbirtajda ko'ramiz degan band shartnomada keltirib o'tadi. Arbitraj kelishuvi nizo kelib chiqqandan keyin ham tuzilishi mumkin, faqat bu tomonlar roziligi asosida tuziladi. Ammo bu unchalik samarali usul hisoblanmaydi, chunki nizo kelib chiqqan paytda taraflar kelisha olmasligi mumkin. Shu bois kelishuv shartnoma[1] tuzilgan paytda tuzilgan bo'lishi yaxshiroq sanaladi. Arbitraj kelishuvi birinchi daraja bu taraflar tomonidan tanlangan barcha qoidalardir. Ushbu qoidalarni tanlaydigan barcha taraflarning arbitraj jarayoniga qo'llaniladi hamda muayyam ishda arbitraj kelishuvi orqali o'zgartirishi mumkin. Arbitraj kelishuvining muhim belgilari, **birinchidan** tomonlar o'rtasida kelishuvi yozma ravishda tuziladi. **Ikkinchidan** tarafdan milliy qonunlar turadi. Har bir arbitraj amalga oshiradigan joyning qonuni (lex arbitri), hamda taraflar tomonidan tanlangan moddiy qonun kuchga kiradi, hamda ular turli milliy qonunlar bo'lishi mumkin. Ko'pchilik davlatlar YUNSITRAL namunaviy qonunini o'zlarining arbitraj qonuni sifatida qabul qilishgan. Arbitraj kelishuvida haqiqiylik prinsipi yuqori turadi. Tomonlat arbitraj kelishuviga erishganlarida taqdim etilgan muhum huquqlari bekor qilinishi bois arbitraj kelishuvining haqiqiyligi juda muhimdir. Shuning uchun taraflar haqiqatdan ham bitim shartini qabul qilganligini aniqlash uchun ko'plab milliy qonunlar va

1 Маргарет Л. Мозес. Халкаро тижорат арбитраж тамойиллари ва амалиети-дарслик Тошкент 2020.

NyuYork konvensiyasi qoidalarini qo'llaydi. Tomonlar o'rtasida shartnoma tuzilgan payti ular shartnoma bandiga arbitraj kelishuvini kiritib ketishadi. Bu tomonlar o'rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda, arbitrajda ko'riladi degan mazmunda. Arbitraj kelishuvi taraflar o'rtasida shartnomaga kiritilgan bo'lsa ham, unga alohida shartnoma deb qaraladi. Shu bois kelishuv shartnomasi haqiqiy emas deb topilsa ham, arbitraj kelishuvi saqlanib qoladi. Alohidalik doktirinasida shartnoma haqiqiy emas deb topilsa ham, bir tomon da'vosi bilan bu munozara ko'rib chiqilishi va qaror qabul qilinishi mumkin. Bunday da'volar arbitrni sud amalyotidan mahrum qilmaydi, chunki bu arbitraj kelishuvigamas, balki shartnomaga tegishlidir. Shunday qilib arbitraj kelishuvi alohida va mustaqil kelishuv hisoblanad. Har bir arbitraj kelishuvida aks etilishi lozim bo'lgan zaruriy, fakultativ elementlar mavjud hisoblanadi. Xalqaro arbitraj sohasida mashhur bo'lgan mutaxassis Garri Born[2] o'zining "Xalqaro arbitraj: huquq hamda amaliyoti" nomli kitobida arbitraj kelishuvi quyidagi zarur elementlarni o'z ichiga olishi lozimligini qayd etadi: 1. arbitraj turi; 2. Arbitrajga oid nizolar doirasi; 3. Arbitraj kelishuviga tadbiq qilinadigan huquq; 4. Qo'llaniladigan huquq; 5. Arbitraj tili; 6. Arbitraj joyi. Mazkur elementlar har bir arbitraj kelishuvida aks etishi lozim bo'ladi. Arbitraj turi deganda, tanlangan arbitraj institutsional yoki ad hoc arbitrajmi aniqlashtirilishi lozim. Ya'ni nizo kelib chiqqanda institutsional yoki ad hoc arbitrajida ko'rilishi tushuniladi. Arbitrajga oid nizo doirasi deganda, arbitrajda qaysi nizolar ko'rilishi tushuniladi. Taraflar arbitraj muhokamasida foydalanadigan til to'g'risida o'z xohishiga ko'ra kelishib olishlari mumkin. Bunday kelishuv mavjud bo'lmasa, muhokamada qo'llanishi kerak bo'lgan tilni yoki tillarni arbitraj sudi belgilaydi. Taraflar arbitraj joyi to'g'risida o'z xohishiga ko'ra kelishib olishlari mumkin. Bunday kelishuv mavjud bo'lmagan taqdirda , arbitraj joyi arbitraj sudi tomonidan ish holatlarini, shu jumladan taraflar uchun qulaylik omilini inobatga olgan holda belgilanadi. Arbitraj kelishuvida, arbitraj izohi degan tushunchaga to'xtalib o'tsak. Arbitraj izohi – chet el elementi bilan murakkablashgan shartnomalarda bir band yoki bob sifatida asosiy shartnomada nizoni hal qilish tartibini nazarda tutiladi. Ya'nikim, bunday shartnomada agar nizo kelib chiqqan taqdirda arbitrajda ko'ramiz degan ma'noda band mavjud bo'ladi. Shunday qilib, arbitraj izohi shartnoma tuzilayotgan vaqtda mavjud bo'lmagan nizolarga nisbatan nazarda tutiladi. Qayd etish lozimki, bunday nizolar hech qachon vujudga kelmasligi ham mumkin. Shu bois, taraflar arbitraj nizo predmetini mavjud munosabatlardan kelib chiqib aniqlashi mumkin. Shunday qilib, arbitraj kelishuvini tuzish orqali muayyam masalalarni sudda hal qilmasdan, arbitrajda ko'rish tomonlar uchun qulayroq hisoblanadi. Bunda tomonlar shartnomaviy masalani sudda hal qilish huquqidan voz kechadilar. Ikkinchidan yurisdiksiya vakolatlarini jismoniy shaxlarga (arbirtlarga) beradilar.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, arbitraj nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri bo'lib, uzoq davr mobaynida qo'llanib kelgan va o'zining samarali usul ekanini isbotlay olgan. Arbitraj taraflarga mustaqillik va erkinlik beruvchi usul hisoblanadi. Nizolarni milliy sud tizimiga kiruvchi sudlarda ko'rib chiqishni istamagan taraflar kelishuv asosida arbitrajni tanlashlari mumkin, chunki arbitraj betaraf bo'lgan inistitut hisoblanadi. Arbitraj kelishuvining taraflarning nizoni ko'rib hal qilivchi vakolatli organning huquq va majburiyatlari, sudlarning miqdori, arbitraj muhokamasi o'tkaziladigan joy, muhokama tilini hamda qo'llanuvchi huquq haqidagi masalalar yuzasidan o'zaro kelishuvini o'z ichiga oluvchi, nizoni hal qilinishining muhim tartib-tomillarini belgilovchi konstitutsiya sifatida etirof etishimiz mumkin. Shunday qilib arbitraj kelishuvi nizoli masalalarni hal qilishni eng muqobil usuli hisoblanadi.

[2] GARY B. BORN. INTERNATIONAL COMMERSIAL ARBITRATION

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маргарет Л. Мозес. Халкаро тижорат арбитраж тамойиллари ва амалиети – дарслик Тошкент 2020.
2. GARY B. BORN. INTERNATIONAL COMMERSIAL ARBITRATION
3. Gulyamov S. & Bakhramova M. (2022). Digitalization of International Arbitation and Dispute Resolution by Artificial Intelligence. World Bulletin of Management and law.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalqaro arbitraj to'g'risidagi qonuni. 2021, Toshkent.
5. New York Convention, Article (3), states